QONUN LOYIHALARINI ISHLAB CHIQISH JARAYONI: ILMIY ASOSLAR

Baxshilloyeva Farangiz Baxtiyor qizi
O`zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi
O‘quv-metodik kabinet mudiri
ORCID: 0009-0009-9292-6284
https://doi.org/10.5281/zenodo.21843279

Annotatsiya: Maqolada qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, uning ilmiy asoslari batafsil tahlil qilingan. Qonun ijodkorligi davlat hokimiyati faoliyatining strategik komponenti sifatida ko‘rib chiqilib, murakkab, ko‘p bosqichli va ilmiy yondashuvni talab qiluvchi jarayon sifatida tasvirlangan. Tadqiqotda qonun loyihalarini tayyorlashning bosqichlari, jumladan, qonunchilik tashabbusi, loyihaning ekspertizasi, parlamentda muhokama va qabul qilish tartiblari yoritilgan. Shuningdek, milliy qonunchilikda qonun loyihalarini tayyorlash va kiritish huquqiy tartibi, Adliya vazirligi ekspertizasi va umumxalq muhokamasi institutining ahamiyati tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy olimlar qarashlari asosida qonun ijodkorligi jarayoni san’at va ilmning sintezi sifatida tavsiflangan, unda siyosiy, ijtimoiy va huquqiy omillar uyg‘unlashadi. Tadqiqot natijalari qonun ijodkorligida ilmiy yondashuvni kuchaytirish, qonunchilik sifatini oshirish va demokratik davlatlarda huquqiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: Qonun ijodkorligi; qonun loyihasini ishlab chiqish; qonunchilik tashabbusi; huquqiy ekspertiza; parlament muhokamasi; ilmiy asos; normativ-huquqiy hujjatlar; demokratik davlat; qonun loyihasini tayyorlash; umumxalq muhokamasi.

KIRISH

Qonun ijodkorligi davlat hokimiyatining normativ-huquqiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan strategik faoliyat bo‘lib, u jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa barcha sohalarini tartibga solishga xizmat qiluvchi huquqiy normalarni yaratish jarayonini qamrab oladi. Mazkur jarayon murakkab, ko‘p bosqichli va ilmiy yondashuvni talab qiluvchi faoliyat bo‘lib, unda muammoni aniqlash, huquqiy tahlil, normativ-huquqiy modellashtirish, ekspertiza va baholash kabi elementlar o‘zaro uzviy bog‘langan.

Zamonaviy demokratik va huquqiy davlatlarda qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayoni faqat siyosiy ehtiyojlar yoki idoraviy manfaatlar bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy asoslangan tahlillar, statistik ma’lumotlar, empirik tadqiqotlar, zamonaviy huquqiy doktrina va xalqaro tajriba bilan mustahkamlab boriladi. Shuning uchun qonunlarni ishlab chiqishda ilmiylik tamoyili, ya’ni qaror qabul qilish jarayonida ishonchli dalillar, obyektiv tahlil va nazariy asoslarning ustuvorligi, huquqiy islohotlar samaradorligi va barqarorligini ta’minlovchi asosiy me’zonlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy asosga tayangan holda yaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar nafaqat huquqni qo‘llash amaliyotida aniqlik va izchillikni ta’minlaydi, balki qonunchilik tizimida kolliziyalar, takrorlar va huquqiy bo‘shliqlarni kamaytiradi, jamiyat ehtiyojlariga mos, funksional va barqaror huquqiy tartibga solish mexanizmini yaratadi. Shu bois, qonun ijodkorligida ilmiy metodologiyaning qo‘llanishi davlat boshqaruvi sifatini oshirish, institutsional modernizatsiya jarayonlarini kuchaytirish va inson huquqlarining kafolatlarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

QONUN IJODKORLIGINING NAZARIY ASOSLARI

Huquq ijodkorligining eng mukammal va tizimli ko‘rinishi qonun ijodkorligi hisoblanadi. Shu sababli, uning tabiati va xususiyatlariga batafsil e’tibor qaratish lozim.

Qonun davlat hokimiyatining maxsus faoliyati natijasida shakllanadi. Davlatning oliy vakolatli amri sifatidagi qonun, hokimiyatning maxsus vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladigan murakkab va ko‘p bosqichli jarayon orqali yaratiladi. Buyuk yunon faylasufi Aflotun shunday degan edi: “Xalq qonunlarga ehtiyoj sezib, ularni puxta o‘rgansa, bu faqat uning o‘ziga foyda keltiradi. Aks holda qonundan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi”. Haqiqatdan ham, xalqimiz qonun buzilishiga qarshi qattiq turmas ekan, davlat idoralari, mansabdor shaxslar qanchalik urinmasin, qonun ustuvorligini ta’minlash qiyin bo‘ladi[1].

Professor X.T. Odilqoriyev fikriga ko‘ra, qonun ijodkorlik jarayonining ta’rifi ikki ma’noga ega: birinchidan, bu qonun loyihasining parlamentga kiritilishidan boshlab, u qabul qilingunga qadar davlat organlari tomonidan ro‘yobga chiqariladigan vakolatlar bo‘lsa; ikkinchidan, qonunchilik hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etadigan turli subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi protsessual qoidalar ifodasidir. Qonun ijodkorligida muayyan munosabatlarni huquq vositasida tartibga solish obyektiv zarurligini anglab yetish, shunga ijtimoiy ehtiyoj borligini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi[2]. Yuridik adabiyotlarda qonun ijodkorligi jarayoniga ma’no jihatidan yaqin turuvchi bir qator iboralar, ya’ni: “qonunchilik jarayoni”, “qonun chiqarish jarayoni”, “qonunchilik tartib-taomili” kabi kategoriyalar keng qo‘llaniladi. Qonun chiqarish jarayonining mazmuni va bosqichlari asosan konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlansa, «qonunchilik tartib-taomili», odatda, parlament reglamentlarida, ichki nizomlarida batafsil belgilab qo‘yiladi. Qonunchilik tartib-taomili deganda, qonun loyihalarining parlament doirasida ko‘rib chiqilishi, muhokama etilishidan tortib to qabul qilinishi va kuchga kiritilishigacha bo‘lgan barcha xatti-harakatlarni amalga oshirish tartibi tushuniladi. Qonunchilik protsedurasi, – deydi professor M.N. Marchenko, – qonun loyihalarini tayyorlash va qabul qilish bilan bog‘liq yuridik mustahkamlangan qoidalarning bir butun majmuidan iborat. Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, qonun ijodkorligi qonunlarni tayyorlash, muhokama qilish va qabul qilish bosqichlari va harakatlari bilan bog‘liq qonunchilik jarayonidir. Ikki palatali parlament sharoitida qonun ijodkorligi jarayoni quyidagi besh bosqichdan iborat bo‘ladi: 1) qonunchilik tashabbusi; 2) qonun loyihasini muhokama qilish; 3) qonunning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinishi; 4) qonunning Senat tomonidan ma’qullanishi; 5) qonunni imzolash va e’lon qilish[3].

Xorijiy olimlarning qonun loyihasi va ijodkorligiga nisbatan fikrlarini ko‘rib chiqamiz. Qonun loyihalarini tayyorlash bo‘yicha eng mashhur nazariyotchilardan biri Gart Tornton“Legislative Drafting” nomli asari bilan tanilgan va zamonaviy qonun yozuvchilik maktabining asoschilaridan hisoblanadi. Tornton tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihalarini tayyorlash jarayonining besh bosqichi qonun ijodkorligi bo‘yicha klassik tahlil sifatida e’tirof etiladi:

1. Siyosiy taklifni to‘liq anglash
2. Taklifni huquqiy jihatdan tahlil qilish
3. Qonunchilik rejasini ishlab chiqish
4. Qonun loyihasini tuzish va shakllantirish
5. Qonun loyihasini ekspertizadan o‘tkazish va takomillashtirish

Qonun loyihasini tayyorlash jarayoni kengroq qonunchilik jarayonining tarkibiy qismi sifatida ham ko‘rilishi lozim. Qonun loyihasini tayyorlashdan avval siyosiy konsepsiya bosqichi mavjud bo‘ladi. Shundan so‘ng, qonun loyihasi parlamentda ko‘rib chiqiladigan parlament jarayoni boshlanadi. Qonun loyihasini tayyorlovchilar uchun kengroq qonunchilik

[1] Mirziyoev Sh. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - T., O‘zbekiston. 2020. 108-b
[2] Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. –225 b.
[3] Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. –226 b

jarayonida ularning vazifalari chegaralari aniq belgilangan emas. Ular odatda siyosiy konsepsiyani ishlab chiqish bosqichida qaysidir darajada ishtirok etadilar hamda, albatta, parlament ko‘rib chiqish jarayonida, ya’ni qonun loyihasi palatalardan o‘tishi davomida unga o‘zgartirishlar kiritishda faol qatnashadilar[4]. Qonun loyihalarini tayyorlash kontekstida an’anaviy yondashuvga ko‘ra, san’at - subyektiv, ijodiy va moslashuvchan bo‘lsa, ilm - obyektiv, qat’iy va aniq hisoblanadi. Agar qonun ijodkorligi san’at sifatida ko‘rilsa, u innovatsion bo‘lib, qat’iy va bo‘g‘uvchi qoidalarga bo‘ysunmasligi lozim. Vatson san’atga xos madaniyatni “ijodiy, tasavvurga boy, intuitiv va instinktiv bilim” deb tasvirlaydi. Bovman esa o‘z maqolasiga “Qonun ijodkorligi san’ati” deb nom bergan va “qonunchilik matnini yaratish jarayoni mexanik xususiyatga ega emas”, deb ta’kidlaydi. Agar qonun ijodkorligi ilm sifatida ko‘rilsa, u texnik mahorat bo‘lib, ma’lum qoidalar tizimiga keltirilishi mumkin bo‘ladi. Kanadada chop etilgan bir tahririy maqolada “qonun matnini tuzish bu ilm bo‘lib … bu ishni faqat tegishli malakaga ega shaxslar bajarishi mumkin”, deb qayd etilgan. Piris ham qonun loyihalarini tayyorlash hech bo‘lmaganda qisman ilm ekanini ta’kidlaydi. Crabbe esa bu jarayonni mustaqil intizom sifatida baholaydi[5].

Yuqoridagi yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, qonun ijodkorligi nafaqat texnik-huquqiy jarayon, balki siyosiy, ijtimoiy va falsafiy omillar uyg‘unligidan tarkib topgan murakkab faoliyatdir. Qonun matni oddiy huquqiy norma emas, balki jamiyatning ehtiyojlari, davlatning strategik maqsadlari va inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy buyurtmaning huquqiy ifodasidir. Shu bois qonun ijodkorligini faqat san’at yoki faqat ilm sifatida talqin qilish biryoqlama yondashuv bo‘ladi. Aslida u san’atning ijodkorlik elementlari bilan ilmning metodologik aniqligini birlashtirgan sintez jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Tornton, Vatson, Bovman, Crabbe kabi xorijiy mualliflarning qarashlari ham shuni tasdiqlaydiki, qonun loyihalarini ishlab chiqish ehtiyotkorlik, tahliliy fikrlash, konseptual aniqlik va texnik mahoratni talab qiladi. Qonun ijodkorligi jarayonining har bir bosqichi siyosiy g‘oya paydo bo‘lishidan tortib parlament tomonidan qabul qilinishigacha mazmunan bir butun tizimni tashkil etadi va ushbu tizimning har qanday bo‘g‘inidagi kamchilik butun qonunning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning malakasi, professional etikasi va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy parlamentlar oldida asosiy vazifa qonun ijodkorligini takomillashtirish orqali sifatli, izchil, huquqiy aniq va ijtimoiy ehtiyojlarga mos keladigan qonunlarni yaratishdan iborat. Buning uchun demokratik jarayonlar ochiqligi, qonun loyihalarining ekspertizasini kuchaytirish, ilmiy-huquqiy yondashuvlarni keng qo‘llash hamda xalqaro tajribani ongli tarzda integratsiya qilish muhimdir. Demak, qonun ijodkorligi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining yuragi bo‘lib, u samarali ishlagan taqdirda davlat organlari faoliyati, huquqiy tartibot va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish tizimi yanada mustahkamlanadi.

MILLIY QONUN IJODKORLIGI TIZIMI – NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARDA

Qonunchilik jarayonining ilk bosqichi hisoblangan qonunchilik tashabbusi – bu muayyan organlar va mansabdor shaxslarning qonunlar chiqarish masalasini qo‘yish vaularning loyihalarini ko‘rib chiqish uchun qonun chiqaruvchi organga taqdim etish

[4] Ronan Cormacain, *Legislative Drafting and the Rule of Law* (PhD thesis, Institute of Advanced Legal Studies, University of London, 2018), https://sas-space.sas.ac.uk/6693/

[5] Ronan Cormacain, *Legislative Drafting and the Rule of Law* (PhD thesis, Institute of Advanced Legal Studies, University of London, 2018), https://sas-space.sas.ac.uk/6693/

huquqidir[6]. Qonun chiqarish tashabbusi – qonun chiqarish jarayonining ilk bosqichi. Bu jarayon qizg‘in sa’y-harakatlarga asoslanadi, ular natijasida qonun chiqaruvchi organga qonunchilik yuzasidan tegishli takliflar kiritiladi, parlament esa o‘sha takliflar asosida yangi qonunchiqarish, amaldagisini o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqishgaqabul qiladi[7]. Konstitutsiyamizning 98-moddasiga ko‘ra, Qonunchilik tashabbusi huquqiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ega. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o‘z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir. O‘zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo‘lgan, yuz ming nafardan kam bo‘lmagan fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli[8]. Konstitutsiyamizga kiritilgan yangi o‘zgartirishlarga ko‘ra, tashabbuskor subyektlar soni ortgan hisoblanadi. Shu sababli, yangi tashabbuskorlarning qonunchilikka taklif kiritish jarayonlarining huquqiy tartiboti hali ishlab chiqish jarayonida.

Mavjud tartiblarga muvofiq qonun loyihalarining tashabbuskor subyektlar tomonidan tayyorlanish jarayonini ko‘rib chiqamiz. Qonun loyihasini ishlab chiqish va muhokama etish qonun yaratish jarayonining alohida va muhim bosqichidir. Bu bosqich qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi taqdim etilgach va u sessiya kun tartibiga kirgandan so‘ng boshlanadi. Shakllangan tajribaga ko‘ra, qonun loyihasi 2 xil ko‘rinishda muhokama qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasiga muvofiq “Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasigataqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo‘yiladi”. Umumxalq muhokamasini amalga oshirishning protsessual, tashkiliy jihatlari O‘zbekiston Respublikasining “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi Qonunida o‘z ifodasini topgan. Ikkinchi xolda, qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasiga kiritiladi va unda muhokama etiladi[9]. 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan O‘RQ 682-sonli “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning 21-moddasiga uchinchi qismiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiquvchi tomonidan tayyorlash hamda tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish muddati, agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, ikki oydan kam etib belgilanishi mumkin emas[10]. Bundan tashqari, qonun ijodkorligi jarayonini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjatlariga: O‘RQ 522-II-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining

[6] F. Yangiboyev, “Qonun ijodkorligi tushunchasi hamda maqsad va vazifalari,” *Modern Science and Research* 3, no. 12 (2024), https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/59448

[7] M.K.Najimov. Norma ijodkorligi. - T., 2018. 24-b

[8] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://lex.uz/docs/-6445145

[9] F. Yangiboyev, “Qonun ijodkorligi tushunchasi hamda maqsad va vazifalari,” *Modern Science and Research* 3, no. 12 (2024), https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/59448

[10] O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun, https://lex.uz/docs/-5378966

Reglamenti to‘g‘risidagi[11]” qonun va O‘RQ 60-son “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risidagi”[12] qonunlar kiradi. Bunda qonun loyihasini tayyor holga qonunchilik palatasiga kiritishgacha bo‘lgan jarayon O‘RQ 60-son bilan tartibga solingan. Unga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining qonunlar loyihalarini tayyorlash borasidagi faoliyati; Adliya vazirligining qonunlar loyihalarini tayyorlash sohasidagi vakolati; qonun loyihasini tayyorlash tartibi; qonunlar loyihalarining mazmuniga qo‘yiladigan asosiy talablar; qonun loyihalarining ekspertizasi; qonunlar loyihalarini qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritish tartiblari aniq normalar bilan belgilangan.

Malumki, qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi huquqi subektlari tomonidan kiritiladi. Ushbu qonun loyihasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 28-dekabrda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali regulation.gov.uz ga muhokamaga chiqariladi. Tayyorlangan qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga Adliya vazirligining huquqiy ekspertiza yakunlari bo‘yicha xulosasi va tushuntirish xati bilan kiritiladi. Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lgan subyektlarning qonun loyihasini parlamentga kiritishi va uni ko‘rib chiqish tartibi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunda belgilab berilgan. Qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritishda quyidagilar taqdim etilishi kerak:

1) qonun loyihasiga uning konsepsiyasi bayon qilingan holdagi tushuntirish xati;

2) o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi, shuningdek qonun loyihasi kiritilishi bilan bog‘liq qonunlarning o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risidagi qonun loyihasi;

3) o‘zgartirilishi, qo‘shimchalar kiritilishi, o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilishi yoki qabul qilinishi lozim bo‘lgan qonun osti hujjatlarining ro‘yxati;

4) moddiy xarajatlarni talab qiladigan qonun loyihalari uchun moliyaviyiqtisodiy asoslar;

5) davlat daromadlarini kamaytirish yoki xarajatlarini ko‘paytirishni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti moddalari bo‘yicha o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonun loyihalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi[13].

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, demokratiya rivojlanishini ko‘rsatuvchi belgilardan biri qonunlarga rioya etish hisoblanadi. Jamiyatda qonuniylikni ta’minlash uchun qonunlar har tomonlama puxta va kamchiliklarsiz bo‘lishi lozim. Qonunni qabul qilish bir nechta bosqichlardan o‘tadi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa qonunni mukammal holatda qabul qilish hisoblanadi[14]. Shundan kelib chiqib, milliy qonun ijodkorligi tizimi zamonaviy demokratik talablar va xalqaro andozalarga muvofiq tarzda bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Qonunchilik tashabbusi subyektlari doirasining kengaytirilishi, xalqning bevosita ishtirokini ta’minlovchi umumxalq muhokamasi institutining mustahkamlab qo‘yilishi, qonun loyihalarini ishlab chiqish muddatlari va tartibining aniq belgilanishi qonun chiqarish faoliyatida ochiqlik, izchillik va huquqiy aniqlik tamoyillarining amalda ro‘yobga chiqishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, qonunlarning

---

[11] “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamneti to‘g‘risida”gi Qonun, 522-II-son, 29 avgust 2003, https://lex.uz/acts/-39573.

[12] “O‘zbekiston Respublikasi Qonunlar loyihalarini tayyorlash va Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida” qonun, 21 avgust 2006,https://lex.uz/mact/-1069260

[13] Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. –228 b

[14] F. Yangiboyev, “Qonun ijodkorligi tushunchasi hamda maqsad va vazifalari,” *Modern Science and Research* 3, no. 12 (2024), https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/59448

sifatini oshirishda Adliya vazirligining huquqiy ekspertiza mexanizmi, reglamentlarda belgilangan ichki tartib-taomillar, xalqaro standartlardan foydalanish amaliyoti alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, qonun loyihalarini ishlab chiqishda iqtisodiy asos, normativ-huquqiy hujjatlar tizimi bilan uyg‘unlik, amaldagi qonunchilikka moslik va takrorlanishning oldini olish kabi talablarning qat’iy belgilanishi qonunchilik jarayonining professional darajasini oshiradi.

TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ham fuqarolarning qonun tashabbusi huquqi nazarda tutilgan. 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlardan so‘ng, saylov huquqiga ega bo‘lgan kamida yuz ming nafar fuqaro qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga takliflar kiritish huquqiga ega bo‘ldi. Biroq ushbu huquqni to‘liq amalga oshirish, ya’ni fuqarolar tomonidan bevosita qonun loyihasini ishlab chiqish va parlamentga taqdim etishning aniq tashkiliy-huquqiy tartibi hali qonun darajasida ishlab chiqilmagan. Bu esa fuqarolik tashabbusining amaliy mexanizmlari yanada takomillashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Latviya va Finlyandiya tajribasi fuqarolik tashabbusining demokratik jamiyatdagi o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Latviya modelida tashabbusni amalga oshirish jarayoni ancha murakkab bo‘lib, fuqarolardan yuqori darajadagi tashkiliy faoliyatni talab qiladi: aholining kamida 10 foizining imzosini to‘plash, notarial tasdiqdan o‘tkazish, maxsus blanklardan foydalanish va qat’iy texnik talablarga rioya qilish shart. Bu esa tashabbusning keng ko‘lamda va rasmiy tartibda amalga oshirilishini ta’minlaydi[15]. Finlyandiya modeli esa ancha soddalashtirilgan, to‘liq raqamlashtirilgan va qulay elektron tizim orqali boshqariladi. Imzo miqdorining nisbatan pastligi (50 000 imzo) va ularni olti oy muddatda yig‘ish talabi ushbu mexanizmni fuqarolar uchun yanada amaliy va ochiq qiladi[16].

Har ikki davlat tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolarning parlamentga bevosita qonun taklifi kiritish huquqi aniq protseduralar, texnik talablar va elektron mexanizmlar orqali tartibga solinganda samarali natija beradi. Shu bois, xorijiy tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham fuqarolarning qonunchilik tashabbusini amalga oshirish tartibini belgilovchi alohida normativ-huquqiy hujjat, maxsus nizom, ishlab chiqilishi zarur. Bundan tashqari, mazkur jarayonni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonunga fuqarolarning qonunchilik tashabbusi mexanizmlariga doir o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu esa mexanizmning tashkiliy-huquqiy asoslarini aniqlashtirish, jarayonning shaffofligi va qulayligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy va xorijiy olimlarning, jumladan, X.T. Odilqoriyev, G. Tornton, Vatson, Bovman va Crabbe kabi mutaxassislarning qonun ijodkorligini san’at va ilm sintezi sifatida baholashi asosida, qonun loyihalarini tayyorlash ijodkorlik, tahliliy fikrlash, konseptual aniqlik va texnik mahoratni talab qiluvchi murakkab faoliyat ekanligi tasdiqlandi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy demokratik davlatlarda qonun ijodkorligini takomillashtirish orqali huquqiy barqarorlikni mustahkamlash, davlat boshqaruvi sifatini oshirish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash mumkin. Umuman olganda,

[15] Saeima of Latvia. (n.d.). *Par tautas nobalsošanu, likumu ierosināšanu un Eiropas pilsoņu iniciatīvām*. Likumi.lv. https://likumi.lv/ta/id/58065-par-tautas-nobalsosanu-likumu-ierosinasanu-un-eiropas-pilsonu-iniciativu

[16] Digital and Population Data Services Agency. (n.d.). *Citizens’ initiative*. Finnish Ministry of the Interior. https://dvv.fi/en/citizens-initiative

qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayoni ilmiy-huquqiy asosga tayangan holda amalga oshirilsa, u nafaqat qonunchilik tizimining samaradorligini oshiradi, balki jamiyatning ehtiyojlariga mos, funksional va barqaror huquqiy tartibga solish mexanizmini yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shunigdek, qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayoni zamonaviy davlat boshqaruvida asosiy strategik faoliyat sifatida qabul qilinmoda. Qonun ijodkorligi nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar yaratish jarayoni, balki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va falsafiy omillarni uyg‘unlashtiruvchi murakkab tizim ekanligi ko‘rsatildi. Shu bilan birga, ilmiy yondashuv qonun loyihalarining sifatini oshirish, izchillikni ta’minlash va huquqiy bo‘shliqlarni kamaytirish borasida muhim vosita sifatida e’tirof etildi. Qonun ijodkorligi jarayoni bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: siyosiy tashabbus, huquqiy tahlil va modellashtirish, qonun loyihasini shakllantirish, ekspertiza va takomillashtirish. Ushbu bosqichlarning har biri bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, butun tizimning samaradorligi va qonunlarning amaliy barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Milliy qonunchilik amaliyotida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik tashabbusi subyektlari, Adliya vazirligining ekspertiza mexanizmi, Qonunchilik palatasining muhokama jarayoni va umumxalq muhokamasi instituti orqali qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayoni izchillik, ochiqlik va huquqiy aniqlik tamoyillariga muvofiq tashkil etilgani ta’kidlandi. Shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarga berilgan qonunchilik tashabbusi huquqi amaldagi qonunchilikda hali to‘liq tartibga solinmagan. Latviya va Finlyandiya tajribasi esa ushbu institut samarali ishlashi uchun aniq protseduralar va elektron mexanizmlar zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur tajribalar asosida fuqarolarning qonunchilik tashabbusini amalga oshirish tartibini belgilovchi alohida nizom ishlab chiqilishi, shuningdek, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - T., O‘zbekiston. 2020. 108-b
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.
3. Ronan Cormacain, Legislative Drafting and the Rule of Law (PhD thesis, Institute of Advanced Legal Studies, University of London, 2018), https://sas-space.sas.ac.uk/6693/
4. F. Yangiboyev, “Qonun ijodkorligi tushunchasi hamda maqsad va vazifalari,” Modern Science and Research 3, no. 12 (2024), https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/59448
5. M.K.Najimov. Norma ijodkorligi. - T., 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://lex.uz/docs/-6445145
7. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun, https://lex.uz/docs/-5378966
8. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamneti to‘g‘risida”gi Qonun, 522-II-son, 29 avgust 2003, https://lex.uz/acts/-39573
9. “O‘zbekiston Respublikasi Qonunlar loyihalarini tayyorlash va Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida” qonun, 21 avgust 2006, https://lex.uz/mact/-1069260
10. Saeima of Latvia. (n.d.). Par tautas nobalsošanu, likumu ierosināšanu un Eiropas pilsoņu iniciatīvām. Likumi.lv. https://likumi.lv/ta/id/58065-par-tautas-nobalsosanu-likumu-ierosinasanu-un-eiropas-pilsonu-iniciativu
11. Digital and Population Data Services Agency. (n.d.). Citizens’ initiative. Finnish Ministry of the Interior. https://dvv.fi/en/citizens-initiative